

O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**



“Tasdiqlayman”

**Kamoliddin Behzod
nomidagi Milliy rassomlik
va dizayn instituti rektori**

O.R.Salixov

“ ” _____ 2026-y



“Ketishildi”

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**

“ ” _____ 2026-y



“Tasdiqlayman”

**O‘zbekiston Badiiy
akademiyasi**

“ ” _____ 2026-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari**

60210700 Haykaltaroshlik: mahobatli

(kunduzgi) ta‘lim yo‘nalishlari uchun

Toshkent–2026-yil

Dastur Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti O'quv uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2026-yil "___" _____dagi "___" sonli majlis bayoni

Tuzuvchi: - **N.Sh. Usmanov**
Haykaltaroshlik kafedrası mudiri

Taqrizchilar: - **N.V. Gilmanova**
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, arxitektura tarixi va nazariyasi kafedrası, arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

- **J.B. Annazarov**
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Haykaltaroshlik kafedrası professori

KIRISH

60210700 — Haykaltaroshlik (mahobatli) ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi hamda baholash mezonlari ushbu yo'nalishning kunduzgi ta'lim shakliga o'qishga kiruvchi abituriyentlar uchun kasbiy (ijodiy) imtihon topshiriqlarini bajarish tartibi va ularni baholash mezonlarini belgilaydi.

“Chizmatasvir” va “Kompozitsiya” fanlari bo'yicha ishlab chiqilgan mazkur sinov dasturi ixtisoslashtirilgan san'at maktablari hamda maktab-internatlarining tegishli o'quv dasturlarida nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalar asosida shakllantirilgan.

Mazkur dastur Respublikamizda badiiy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida malakali mutaxassislar tayyorlash, abituriyentlarning tasviriy san'at yo'nalishidagi tayyorgarlik darajasi, amaliy ko'nikmalari, ijodiy fikrlashi hamda haykaltaroshlik sohasiga bo'lgan qiziqish va moyilligini aniqlashga qaratilgan.

I. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar.

60210700 — Haykaltaroshlik (mahobatli) ta'lim yo'nalishi bo'yicha kunduzgi ta'lim shakliga o'qishga kiruvchi abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni “Chizmatasvir” va “Kompozitsiya” fanlaridan topshiradilar.

“Chizmatasvir” fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonning uslubiy ko'rsatmasi 1-ilovaga, “Kompozitsiya” fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonning uslubiy ko'rsatmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanadi.

“Chizmatasvir” fanidan kasbiy (ijodiy) imtihon topshirig'i sifatida neytral fon asosida qo'yilgan **“Odam boshi portreti”** akademik qo'yilmasi bo'yicha amaliy ish bajariladi. Abituriyent topshiriqni bajarish jarayonida naturaning tashqi ko'rinishi, umumiy proporsiyalari, bosh shaklining konstruktiv tuzilishi hamda asosiy anatomik xususiyatlarini to'g'ri ifodalashi talab etiladi. Shuningdek, ishni bajarishda kompozitsion joylashtirish, shaklning hajmiy ifodasi, yorug'-soya munosabatlarini to'g'ri ko'rsatish hamda tasviriy savodxonlik asoslariga rioya etish lozim. Abituriyentdan topshiriqni puxta kuzatuvchanlik, estetik did va ijodiy yondashuv asosida mantiqiy yakunlangan holatda taqdim etish talab etiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda **“Chizmatasvir”** fanidan amaliy ishni bajarish uchun **160 daqiq**a vaqt ajratiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
	Chizmatasvir fani bo'yicha amaliy ish	Jami 63 ball
1.	Naturaning kompozitsion to'g'ri joylashuvi	7 ball
	Umumiy proporsiyalarni to'g'ri topish	7 ball
	Bosh shaklining konstruktiv tuzilishini ifodalash	6 ball
	Rakurs va fazoviy holatni to'g'ri ko'rsatish	6 ball
	Yuz qismlarining o'zaro nisbatlari	6 ball
	Yorug'-soya munosabatlarini ifodalash	6 ball
	Anatomik tuzilishni to'g'ri aks ettirish	6 ball
	Naturaga o'xshashlik va xarakterli belgilarni topilganligi	6 ball
	Amaliy ishni bajarishdagi badiiy mahorat darajasi	6 ball
	Ishning umumiy tugallanganlik darajasi	7 ball

“Kompozitsiya” fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent berilgan mavzu asosida topshiriqni loy yoki plastilinda bajarishni erkin tanlaydi. Topshiriqni bajarishda kompozitsiya g'oyasi, mazmuni va mohiyatining haykaltaroshlik yo'nalishi xususiyatlariga mosligi, mavzu asosida kompozitsion yechim topilganligi, shakl va obrazlarning badiiy hamda plastik ifodasining yaratilganligi, kompozitsiya markazining ifodali topilganligi, mazmun va g'oyaning badiiy vositalar orqali yoritilishi hamda ishning tugallanganlik darajasi e'tiborga olinadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda **“Kompozitsiya”** fanidan berilgan mavzu uchun **160 daqiqa** vaqt ajratiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
	Kompozitsiya fani bo'yicha amaliy ish	Jami 93 ball
1.	Kompozitsion yechimning originalligi va mavzuga mosligi	10 ball
	Berilgan mavzuning mazmun va g'oyasini anglash hamda ifodalash darajasi	8 ball
	Kompozitsiyaning haykaltaroshlik yo'nalishiga xos plastik yechimi	8 ball
	Shakl, proporsiya va obrazlarning o'zaro uyg'unligi	10 ball
	Kompozitsiyaning fazoviy yechimi, muvozanati va yaxlitligi	10 ball
	Siluet, dinamika, statika va ritm yechimlarining ifodalanganligi	7 ball

Obrazning xarakteri va badiiy ifodaviyligi	10 ball
Yumshoq ashyo bilan ishlash sifati (loy/plastilin)	10 ball
Ijodiy yondashuv va ishlanish mahorati	10 ball
Ishning tugallanganlik darajasi	10 ball

II. Kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish tartibi.

60210700 — Haykaltaroshlik (mahobatli) ta’lim yo‘nalishining kunduzgi ta’lim shakliga hujjat topshirgan abituriyentlar belgilangan jadval asosida ajratilgan vaqt davomida “Chizmatasvir” fanidan neytral fonda qo‘yilgan topshiriqni, “Kompozitsiya” fanidan esa berilgan mavzu asosidagi vazifani bajaradilar.

Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar kesimida kasbiy (ijodiy) imtihonlar maxsus jihozlangan auditoriyalarda o‘tkaziladi. Abituriyentlar belgilangan tartib-qoidalarga muvofiq maxsus tekshiruvdan o‘tkazilib, shundan so‘ng bino va auditoriyalarga kiritiladi.

III. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo‘yicha apellyatsiya tartibi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 578-qaroriga 1-ilova “Oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 4-bob 30-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

Apellyatsiya shikoyatlari imtihon natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan uch kun muddat ichida ko‘rib chiqiladi.

Abituriyent apellyatsiya shikoyatini ko‘rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega. Apellyatsiya arizasining ko‘rib chiqilish vaqti va joyi haqida abituriyentga kamida bir kun oldin xabar beriladi.



Arizalar faqat murojaatchining baholari va yozma ishi bilan bog‘liq bo‘lgan taqdirda qabul qilinadi, ammo boshqa abituriyentlarning ishlari to‘g‘risida shikoyatlar qabul qilinmaydi.

IV. Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev N.X. "Chizmatasvir". O'quv qo'llanma. T.; 2010 - 80 b.
2. Boymetov B. "Qalamtasvir". Uslubiy qo'llanma. T.; 2006 .
3. Лантери Э. Лепка / Перевод с английского А. Е. Кроль. – М.: издательство «В. Шевчук», 2006. – 336 с.
4. Toshmurodov M. "Chizmatasvir". O'quv qo'llanma. T.; 2012-124 b.
5. The Sculpting Techniques Bible: An essential illustrated reference for both beginners and experienced sculptors. Edited by Claire Waite Brown. 2006. Page 191.
6. Oripova M. "Gipisli shakillarini chizmatasviri". O'quv qo'llanma. T.; 2011–100 b.

Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va
baholash mezoniga 1-ilova

**“Chizmatasvir” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy
ko‘rsatmasidan NAMUNA
Vazifa: Odam boshi portret.**



Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga
2-ilova

**“Kompozitsiya” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy
ko‘rsatmasidan NAMUNA**

Vazifa: Berilgan mavzu

